

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

XORIY PSIXOLOGIYASIDA SHAXSNING HAYOT YO'LI MASALASINI TADQIQ ETILISHI

Oribjonova Nodira Shuhratjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, o'qituvchi (PhD).

e-mail: nodirabegim.olibjonova.1993@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-0565-3209>

Annotatsiya.

Maqolada xorijiy olimlar tomonidan shaxsning hayot yo'li masalasini o'rganishga doir nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Ayniqsa, shaxs hayot yo'lining namoyon bo'lishiga oid olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar, yondashuvlar hamda konsepsiyalarning mazmun-mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, hayot yo'li, hayot vaqti, hayotiy davr, biologik davr, ijtimoiy rollar, ijtimoiy davrlar, shaxsiy tanlov, individual rivojlanish, ijtimoiy individual rivojlanish, ijtimoiy umumiy rivojlanish, ontogenez, hayotning kechishi, biografiya.

ИССЛЕДОВАНИЕ ВОПРОСА ЖИЗНЕННОГО ПУТИ ЛИЧНОСТИ В ЗАРУБЕЖНОЙ ПСИХОЛОГИИ

Орибжонова Нодира Шухратжон кизи

Узбекский государственный университет мировых языков, преподаватель (PhD).

Аннотация.

В статье представлен анализ теоретических подходов зарубежных учёных к изучению жизненного пути личности. Особое внимание уделяется содержанию теоретических взглядов, подходов и концепций, предложенных исследователями для объяснения особенностей формирования и проявления жизненного пути личности.

Ключевые слова: личность, жизненный путь, жизненное время, жизненный период, биологический период, социальные роли, социальные периоды, личностный выбор, индивидуальное развитие, социально-индивидуальное развитие, социальное развитие, онтогенез, течение жизни, биография.

STUDY OF THE PROBLEM OF THE INDIVIDUAL'S LIFE PATH IN FOREIGN PSYCHOLOGY

Oribjonova Nodira Shuhratjon qizi

Uzbekistan State World Languages University, Lecturer (PhD).

Abstract.

This article analyzes theoretical approaches developed by foreign scholars to the study of an individual's life course. Particular attention is paid to the theoretical views, approaches, and concepts proposed by researchers to explain the formation and manifestation of an individual's life course.

Keywords: personality, life course, life time, life period, biological period, social roles, social periods, personal choice, individual development, social-individual development, social development, ontogenesis, course of life, biography.

Kirish. Ma'lumki, inson haqidagi zamonaviy fanlar tizimida shaxsning hayot yo'lini tadqiq etish muammosi bugungi kunning dolzarb, yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kiradi. Unga ko'ra, hayot yo'li konsepsiyasi o'zining serqirraligi va kengligi bilan tavsiflanadi. Ushbu tushunchaning turli jihatlarini ilgari surish ko'zda tutilgan maqsad va ilmiy yo'nalishga, shuningdek, bu atamaning qayerda qo'llanilishiga bevosita bog'liqdir. Biroq ushbu tushunchani ta'riflashda ilmiy yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlaridan qat'i nazar, insonning hayot yo'lini tug'ilishdan to o'limgacha bo'lgan rivojlanishining individual tarixi sifatida ko'rib chiqish bo'yicha umumiy aksioma mavjud. Shuning uchun olimlar tomonidan hayot yo'lini ko'rib chiqishning boshlang'ich nuqtasi sifatida aynan shu dilemma tanlangan. Hayot yo'li konsepsiya sifatida Rossiya ilmiy doiralarida o'tgan asrning oxirlarida namoyon bo'la boshladi.

Amaliy psixologning 1998-yilgi lug'atida S. Yu. Golovin "hayot yo'li" tushunchasini insonning tug'ilishdan o'limgacha bo'lgan davrdagi individual rivojlanishini belgilovchi keng qamrovli umumilmiy atama sifatida taqdim etadi [2]. "Hayot yo'li" tushunchasi "Rivojlanish psixologiyasi" ensiklopedik lug'atida ham ta'riflangan bo'lib, unda bu atama insonning tug'ilishidan to vafot etgunigacha bo'lgan individual rivojlanishi bilan bog'liq jarayon sifatida tavsiflanadi [11]. Mazmuni turlicha bo'lishiga qaramay, "hayot yo'li" kategoriyasi ko'pincha "hayot vaqti" va "hayotiy davr" kabi tushunchalarning sinonimi sifatida noto'g'ri ishlatiladi. Inson hayot yo'lining "hayot vaqti"dan farqli jihati birinchi tushunchaning mazmuniy tavsifi bo'lib, bu ikkinchi tushunchaga xos emas [6].

Bundan tashqari, "hayotiy davr" rivojlanishning biologik, ijtimoiy va bioijtimoiy jihatlarida takrorlanuvchi invariant hodisa sifatida tushuniladi. Ayni paytda hayot yo'li uchun ko'p o'lchovlilik xos bo'lib, u ko'p jihatdan subyektning shaxsiy tanloviga bog'liq bo'lgan rivojlanish va amalga oshirishning barcha mumkin bo'lgan yo'nalishlari bilan belgilanadigan ko'plab avtonom tartibdagi tendensiyalarni nazarda tutadi.

"Hayotiy davr" tushunchasi rivojlanishning qat'iy belgilangan bosqichiga ega bo'lgan jarayon hodisalarining

qandaydir yopiqligi, cheklanganligidir. Shuni ta'kidlash zarurki, inson taraqqiyotining asosiy bosqichlari faqat boshqa hayotiy holatlar bilan simbiozda shaxsiy sa'y-harakatlar bilan belgilanadigan holatlarni hisobga olgan holda aniq belgilanishi mumkin. K. V. Karpinskiy hayot yo'li bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkinligini ta'kidlaydi:

1. biologik davrlar (tug'ilish, o'sish, yetilish, qarish, o'lim);
2. ba'zi ijtimoiy rollarni (mehnat, oilaviy va h.k.) o'zlashtirish, bajarish, yo'qotish bilan belgilanadigan ijtimoiy davrlar;
3. yosh avlodlarining almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan bioijtimoiy tartibning aralash davrlari, bunda qarishning biologik qonuniyatlarini ijtimoiy qonuniyatlar bilan to'ldiriladi [4].

Individual hayotiy davr bilan bir qatorda oilaviy hayot (nikoh akti, bola tug'ilishi, turli yoshdagi bolalari bo'lgan oila, mustaqil turmush tarziga o'tgan voyaga yetgan bolalari bo'lmagan oila), kasbiy karyera va boshqalar bilan belgilanadigan davrlar ham mavjud.

"Hayotiy davr" va "hayot yo'li" atamaları bir-biridan farq qilishiga qaramay, rivojlanish psixologiyasining bir qator vakillari biologik ontogenez ko'rinishidagi hayot yo'li ilmiy kategoriyasi tizimini konstruktiv shakllantirish asosida ushbu tushunchalarni birlashtirishga harakat qilganlar. Yosh davrlashtirishning qat'iy yondashuvi va turli xil qarashlarning rivojlanishi individuallikdan mahrum bo'lib, muntazam takrorlanuvchi davrlarga olib keldi.

Insonning hayot yo'li bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish barcha davrlarda ijtimoiy fanlar tizimida alohida mavqega ega bo'lgan, biroq mamlakatimiz ilm-fanida u ancha uzoq vaqt davomida unutilgan. Ushbu muammo birinchi marta 1935-yilda S. L. Rubinshteyn tomonidan ilmiy izlanishlar oqimiga qo'yilgan [12]. 1935-yilgacha hayot yo'li muammosi chet el olimlari tomonidan o'rganilgan. Tabiiy va ijtimoiy fanlar asosida tadqiqot vazifalari va tafakkur tarzi bilan belgilanadigan holatlar "hayot yo'li" tushunchasini tushinishda katta xilma-xillikka sabab bo'ldi.

Xususan, biologlar va psixofiziologlar tanqidiy yoki senzitiv davrlarga alohida ahamiyat berganlar (bu davrda organizmga rivojlanishning ma'lum bir nuqtasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan va unda o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan qaytmas jarayonlarni keltirib chiqaradigan tashqi va ichki tartibdagi ba'zi omillarga alohida ta'sirchanlik xosdir). Bundan tashqari, sotsiologlar tomonidan maxsus marosimlar, marosimiy o'tishlar kabi ijtimoiy hodisalar bilan belgilanadigan ijtimoiy o'zgarishlar va rivojlanishning burilish nuqtalari bilan bog'liq qoidalarga ham to'xtalib o'tilgan.

Shuningdek, shaxsning maktabga kirishi, yuridik voyaga yetishi, nikoh tuzishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy maqomi va faoliyati tuzilmasi tubdan o'zgaradi. "Shaxsning hayot yo'li" tushunchasi psixolog, falsafa doktori, bolalar psixologiyasi bo'yicha mutaxassis Sharlotta Berta Byuler tomonidan taklif etilgan bo'lib, u hayot fazalarining o'zgarishidagi qonuniyatlar, hukmron tendensiyalar, yosh o'zgarishi bilan hayotiy faollik kengligining o'zgarishi bilan belgilanadigan konsepsiyani shakllantirgan.

Ma'lumki, taraqqiyot yo'nalishlari uch toifa bilan belgilandi: tashqi voqealar ketma-ketligi, bu voqealar kechinmalari va inson faoliyati natijalarining o'zgarishi bilan belgilanadigan hayotning obyektiv mantig'i [10]. Uning konsepsiyasiga hayot yo'lining (voqeaning) tarkibiy birliklari asos qilib olingan. Bu hodisalarni tashqi va ichki hodisalarga ajratish orqali Sh. B. Byuler shaxs taraqqiyotida asosiy harakatlantiruvchi kuch — "o'zini o'zi ro'yobga chiqarish"ga intilishni aniqladi. Uning qarashlariga ko'ra, hayot yo'lining yakuni insonning ongli yoki ongsiz ravishda intilgan barcha qadriyatlar va maqsadlarni amalga oshirishga intilishi bilan bog'liq. "O'zini o'zi namoyon qilish" tushunchasi mazmun jihatidan "o'zini o'zi faollashtirish" va "o'zini o'zi ro'yobga chiqarish" tushunchalariga yaqinlashadi. Shuning bilan birga, u insonning yoshiga qarab tabaqalashtirilgan jarayonning kengroq natijasi hisoblanadi. Jumladan:

- 1,5 yoshgacha o'zini o'zi ro'yobga chiqarish o'zini yaxshi his qilish bilan belgilanishi mumkin;
- 12 yoshdan 18 yoshgacha o'zini o'zi ro'yobga chiqarish kechinmalar bilan belgilanadi;
- 25–50 yosh oralig'ida o'zini o'zi ro'yobga chiqarish o'zini o'zi anglash bilan belgilanadi;
- 65–85 yoshda o'zini o'zi ro'yobga chiqarish o'zini o'zi yakunlash bilan belgilanadi.

Individning o'zini o'zi ro'yobga chiqarish darajasi uning ichki mohiyatiga maksimal darajada mos keladigan, real bajarilishi mumkin bo'lgan hayotiy maqsadlarni qo'yish qobiliyatiga bevosita bog'liq (insonga tushunarli bo'lgan targ'ibotning aniq ifodalangan o'zini o'zi belgilashga, demakki, o'zini o'zi ro'yobga chiqarish ehtimoliga ham bevosita bog'liq). Sh. B. Byuler tomonidan ilgari surilgan insonning hayotiy davr konsepsiyasi ijtimoiy maqomiga ko'ra, turli xil insonlarning biografik materiallarini tahlil qilishga asoslangan. U nafaqat bu insonlar hayotidagi voqealarning obyektiv borishini, balki ularning ijodini, shuningdek, ichki dunyosidagi o'zgarishlarni va ayniqsa, o'z hayotiga bo'lgan munosabatini o'rgangan. Bularning barchasi unga o'z taqdirini o'zi belgilash rivojlanishining beshta asosiy bosqichini ajratib ko'rsatish imkonini berdi. Uning fikriga ko'ra, rivojlanish bosqichi uzluksiz bo'lib, faqat yo'nalish o'zgargandagina uning rivojlanishi o'zgarishi mumkin — oldingi bosqichning yangisiga aylanishi sodir bo'ladi [4].

1. Birinchi faza tug'ilgan paytdan boshlab 16–20 yoshgacha bo'lgan yosh bilan belgilanadi. Bu davr o'z taqdirini o'zi belgilashdan oldin keladi, chunki individ hali oila va doimiy kasbga ega bo'lmagan bo'ladi. Sh. B. Byuler bu fazani hayot yo'lidan tashqariga chiqaradi.

2. Ikkinchi faza 16–20 yoshdan 25–30 yoshgacha bo'lgan yosh bilan belgilanadi. Bu fazada individ o'zini turli faoliyat turlarida sinab ko'radi. U o'z harakatlarini qarama-qarshi jins vakillari bilan aloqa o'rnatishga yo'naltiradi hamda turmush o'rtog'ini qidiradi. Bu xildagi qilmishlar dastlabki, diffuz xarakterda — o'z taqdirini o'zi belgilashning boshlanishi bo'lib ko'rinadi. Yosh yigit ichki dunyosining o'ziga xosligi umid bilan — kelgusi hayot faoliyatining ehtimoliy yo'llari eskizlari bilan belgilanadi.

3. Uchinchi faza uchun yosh senzi 25–30 dan 45–50 yoshgacha belgilangan. Bu fazaning boshlanishi insonning o'zining haqiqiy kasbini yoki doimiy kasbiy mashg'ulotini topishi, o'z oilasini qurishi va hayotdan kutishi, o'z imkoniyatlarini sog'lom baholashi hisoblanadi. Bu yoshni subyektiv boshdan kechirish — hayotning cho'qqisidir.

Yetuklik yoshiga yaqinlashganda inson o'z oldiga ma'lum hayotiy maqsadlarni qo'yadi va ularga erishish natijalarini baholaydi. Taxminan 40 yoshga kelib, insonda shaxsning o'zini o'zi baholashi shakllanadi. Bunda uning hayotiy yo'li natijalari hal qilinadigan vazifa sifatida aks etadi.

4. To'rtinchi faza uchun 45–50 yoshdan 65–70 yoshgacha bo'lgan yosh xos bo'lib, bunda inson o'z kasbiy faoliyatini yakunlashga yaqinlashadi. Katta yoshdagi bolalar oilani tark etishadi. Individ tomonidan faoliyat va o'z yutuqlari yakunlari chiqariladi. Ko'pchilik insonlar uchun bu davr biologik so'lish, reproduktiv qobiliyatning yo'qolishi, hayotiy davrining qisqarishi bilan bog'liq.

5. Beshinchi faza (65–70 yoshdan o'lingacha) kishilarning o'z kasbiy faoliyatlarini to'xtatishlari bilan xarakterlanadi. Insonlar hayotining bu fazasida endi yoshlikda ko'zlagan maqsadlariga erishishni ko'zlamaydilar. Qolgan kuch-quvvatlarini turli hordiq chiqarishga, sayohatga yoki vaqtni maroqli o'tkazishga sarflaydilar. Ijtimoiy aloqalar zaiflasha boshlaydi. Qariyalarning ichki dunyosi o'tmishga qaratilgan. Xavotirli holat yuzaga keladi. Oxiri yaqinligini oldindan sezish kuchayib boradi. Tinchlik istagi paydo bo'ladi. Bu davrda insonga o'z mavjudligiga mazmun berishga urinish xosdir.

Insonlarning bir toifasida bosib o'tilgan hayot yo'lidan qoniqish hissi ustunlik qilsa, boshqasida, aksincha, o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarning bajarilmasligi bilan kechadigan qoniqmaslik hissi ustunlik qiladi. K. V. Karpinskiyning fikricha, bu olimlarning ilmiy merosi shaxs hayot yo'li psixologiyasiga oid yangi tadqiqotlar fonida o'rganish, anglash va yanada rivojlantirish bosqichida turibdi [10]. Jumladan, N. A. Ribnikovning turli yoshdagi insonlar psixologiyasini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlari inson hayot yo'lini o'rganish muammolariga ma'lum darajada to'xtalib o'tgan. U "akmeologiya" atamasini ilgari surdi. Bu atama individning yetuklik davridagi rivojlanish qonuniyatlarini belgilovchi tushuncha sifatida ishlatilgan. Biografik usulga yo'naltirilgan bunday yondashuv shaxsning haqiqiy hayot yo'lini va uning individual biografiyasining asosiy bosqichlarini qayta yaratishi kerak edi. N. A. Ribnikovning asosiy e'tibori psixologiyada biografik usulni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan bo'lsa-da, shaxsning hayotiy yo'llarini konseptual darajada tadqiq etish bilan bog'liq muammo o'rganilmaganligicha qolmoqda [13].

S. L. Rubinshteyn inson hayot yo'lini tahlil qilishda voqea yondashuvi muallifi hisoblanadi. Voqealar har qanday tarixiy jarayonning, shuningdek, inson biografiyasining tarkibiy birliklaridir. Voqealar shaxsning o'zgarishi va rivojlanish yo'nalishlari, qadriyatlar tizimi va uning xarakterini qayta qurish bilan bevosita bog'liqdir. Shu munosabat bilan S. L. Rubinshteynning pozitsiyasini ta'kidlash qiziqarli, uning fikricha, hayotiy sharoitlarning har qanday o'zgarishini voqea deb atash mumkin emas [7]. Uning qarashlariga ko'ra, "individual tarix" davomida inson hayot yo'lining kardinal momentlari, burilish bosqichlari yuzaga kela boshlaydi. Bunda u yoki bu qarorning nisbatan uzoq muddatga qabul qilinishi insonning keyingi hayot yo'lini (hayot voqealarini) oldindan belgilab beradi [12]. B. G. Ananov hayot yo'li muammolarini tadqiq etar ekan, shaxs nazariyasi o'rniga tarixiy, dinamik va protsessual pozitsiyalarni afzal ko'rdi. Uning fikricha, shaxsning hayot yo'li insonning bevosita jamiyatda shakllanishi va rivojlanishi tarixi bilan bog'liq [1].

B. G. Ananov hodisalarni 2 turga ajratgan:

- atrof-muhit hodisalari;
- insonning muhitdagi xatti-harakatlari bilan bog'liq hodisalar [1];
- insonning ma'naviy tarjimai holini tashkil etuvchi ichki hayot voqealari (uchinchi tur N. A. Loginova tomonidan qo'shilgan) [8].

1. Birinchi tur subyektning o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra sodir bo'ladigan hodisalar bilan shartlangan. Bunday voqealarga insonlarning shaxsiy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan va ularning o'z tarjimai holida voqea sifatida belgilangan Ikkinchi jahon urushi, Gorbachyovcha qayta qurish kabilar kiradi. Muhit hodisalari, shuningdek, hayotdagi turli-tuman o'zgarishlar sifatida noaniq oqibatlariga olib kelishi mumkin. Muhitning u yoki bu hodisasida bevosita ishtirok etish turli insonlarda turlicha namoyon bo'ladi.

2. Hayot hodisalarining ikkinchi tipi hodisalar deb ataluvchi xatti-harakatlar (insonning atrof-muhitdagi xulq-atvori) bilan bog'liq. Voqealar-xatti-harakatlar muayyan maqsadga erishishga ham, yangi hayotiy istiqbollarning ochilishiga ham birdek ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ular shaxsning dunyoda sodir bo'layotgan voqealarga bo'lgan munosabatini namoyon etishga yordam beradi. Shu munosabat bilan xatti-harakatning asosida asosiy jihat bo'lib, insonning o'zi tomonidan bevosita vaziyatga qo'yiladigan individual mazmun hisoblanadi. Voqea-harakatlar asosida vujudga kelgan holatlar yotadi hamda ularning yetilishi insonning ichki dunyosidagi kechinmalar sohasida sodir bo'ladi.

3. Uchinchi turdagi hodisalarning o'ziga xos xususiyatlari qadriyatlarining shakllanishi va o'zgarishi, shaxsning "ma'naviy asoslari" bilan belgilanadigan insonning ichki hayoti bilan bog'liq hodisalaridir.

Bundan tashqari, ichki hayot voqealariga alohida ma'no va kechinmalar bilan to'lib-toshgan, insonni butun hayoti davomida kuzatib boradigan barcha voqealarni kiritish mumkin. Har bir inson uchun hayot yo'li o'ziga xos bo'lib, u har bir shaxsning shaxsiy hayotiy tajribasiga bog'liq. Shuning uchun uni har tomonlama tahlil qilish va umumiy tizimga keltirish mumkin emas. Agar hayot tug'ilishdan to'lingacha davom etadigan vaqt oralig'i bilan belgilansa va u turli xil hodisalar bilan to'ldirilgan bo'lsa, hayot yo'li, bizning fikrimizcha, tegishli hodisaga javob reaksiyasini tanlashdir. Shu bilan birga, reaksiyani tanlash analoglarning yo'qligi bilan bog'liq va faqat psixologik hozirda mavjud bo'lib, individ uchun uning butun hayoti davomida dolzarbdir. "Reaksiya tanlovi" tushunchasiga nisbatan o'xshash yana bir tushuncha "hayotiy tanlov"dir. Ushbu tushuncha uchun hayot yo'lida burilish nuqtasining yuzaga kelishi xosdir. Hayotiy tanlov o'z tuzilishi va ichki tendensiyalariga ega bo'lib, u shaxsning yo'nalishini, uning dunyo bilan o'zaro ta'siri usullarini va rivojlanish darajasini belgilaydi. Hayotiy tanlovning o'ziga xos belgisi insonning o'z taqdirini o'zi belgilash, pirovardida esa o'zini o'zi ro'yobga chiqarish uchun qandaydir ijtimoiy kontekstga suqilib kirishidir. Mazkur tushuncha insonga hayot mazmunini anglash, maqsad, vazifa va unga erishish yo'llarini anglashga intilish imkoniyatini yaratadi.

Ma'lumki, shaxsning davr zamondoshi, avlod tengdoshi sifatida shakllanishi tarixiy davrga bevosita bog'liqdir. B. G.

Ananevning fikriga ko'ra, tarix "shaxs hayotida asosiy hamkor bo'lib, ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq voqealar uning tarjimai holidagi bosqichlarga aylanadi" [1]. Shaxsning hayot yo'lini fanlararo yondashuv predmeti sifatida o'rganish kontekstida I. S. Kon kamida uchta aniq yo'naltirilgan, inson rivojlanishini tizimli ravishda belgilab beruvchi makonni ajratib ko'rsatishni zarur deb hisoblaydi:

1. Individual rivojlanish makoni.
2. Ijtimoiy individual rivojlanish makoni.
3. Ijtimoiy umumiy rivojlanish makoni [5].

Individual rivojlanish makoni deganda "ontogenez", "hayotning kechishi", "hayot yo'li", "hayotiy davr", "biografiya" kabi atamalardan foydalangan holda rivojlanish bosqichlari, hayot yoshi, yosh xususiyatlari va boshqalarni tavsiflash bilan bog'liq barcha jarayonlarni tushunish kerak.

Ijtimoiy individual rivojlanish makoni deganda jamiyatning ijtimoiy-yosh jarayonlari va tuzilmalarini tushunish kerak. Ular yosh stratifikatsiyasi, mehnat taqsimoti, yosh qatlamlari, guruhlar, avlodlar va boshqalarni tavsiflaydi. Ijtimoiy umumiy rivojlanish makoni madaniyatdagi yosh jarayonlari va xususiyatlarining in'ikosi sifatida "yosh simbolizmi" bilan belgilanadi. Ushbu makon turli ijtimoiy-iqtisodiy va etnik xususiyatlarga ega bo'lgan vakillarni, turli jamoalar va guruhlarini ("yosh marosimlari", "yosh stereotiplari" va boshqalar) idrok etish va ramziylashtirishga qaratilgan. Ushbu makonning asosiy tushunchasi "yosh" kategoriya sifatida ifodalangan bo'lib, u individning shaxsiy shakllanishining vaqtinchalik xususiyatlarini belgilash uchun xizmat qiladi. Ushbu kategoriya, ya'ni baholash yetarlicha ko'p o'lchovli xususiyatga ega. Jumladan, shaxs hayotining davomiyligini ifodalovchi "xronologik yosh" tushunchasi "hayot vaqti" tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir.

O'z navbatida, insonning ijtimoiy yoshini o'lchash uning ijtimoiy rivojlanish darajasini uning yosh toifasi uchun statistik normal daraja bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Biologik yoshni aniqlash konstantasi — bu xronologik qatordagi butun populyatsiyaning o'rtacha statistik ma'lumotlari bilan solishtirilgan holda organizmning moddalar almashinuvi va funksiyalari holatini aniqlash hisoblanadi. Umumiy tibbiyot lug'atida ruhiy yoshni aniqlashda individning o'rtacha statistik me'yorga nisbat berilgan intellektual rivojlanish darajasi ko'rsatkichlaridan foydalaniladi [9].

Psixologik yoshning xronologik yoshdan farq qiluvchi xususiyati organizm shakllanishining yashash sharoiti, ta'lim, tarbiya, aniq tarixiy kelib chiqish kabi qonuniyatlari bilan shartlangan ontogenetik rivojlanish bosqichining sifat jihatidan o'ziga xosligi bilan belgilanadi. L. V. Kravchenkoning ta'kidlashicha, insonning obyektiv boshdan kechiradigan yoshi yoshga oid o'zini o'zi anglash va subyektiv baholash bilan belgilanadigan turli omillarga, shuningdek, shaxsning o'zini o'zi anglash darajasiga va hayotning mazmunli voqealarga to'raligiga bevosita bog'liqdir. Bundan tashqari, insonning psixologik yoshi ko'p o'lchovli hodisa bo'lib, hayot faoliyatining turli sohalariga ega bo'lgan insonlarda aniq mos kelmaydi [7]. S. S. Kanavinaning ta'kidlashicha, insonning hayot yo'li o'z-o'zidan ko'p sonli individual va takrorlanmaydigan xarakterlar va holatlarning birikishi natijasida namoyon bo'ladi. Ular jismoniy jihatdan shaxssiz tuzilmalar va jarayonlar atamaları doirasida tavsiflanmaydi. Hayotiy voqealar uchun nafaqat obyektiv ma'no, balki subyektiv shaxsiy mazmun ham xos hisoblanadi [3]. Shuning uchun ularni tushunish uchun maxsus manbalar va bilish usullari, masalan, biografik usul kerak. Inson taraqqiyotini vaqtinchalik hayotiy olamda o'rganish zarurati "insonni o'rganishning biografik usuli" tushunchasi ostida ifodalanganidan ko'plab usullarning paydo bo'lishini taqozo etadi. Biografik metod paydo bo'lishining dastlabki fazasida u adabiyotshunoslik shaklida taqdim etilgan. Bu oqimning yirik vakillaridan biri XIX asr fransuz tanqidchisi va yozuvchisi Sh. Syent-Bevdir. Hozirgi kunda zamonaviy ilmiy adabiyotlarda biografik metod ta'rifiga yagona yondashuv mavjud emas. Shunga qaramay, N. A. Loginova biografik metod tushunchasini quyidagicha ifodalash mumkinligini ta'kidlaydi:

- biografik ma'lumotnomalar, tarjimai hollardan foydalanish;
- tarjimai hollar, xatlar, kundaliklar, xotiralar, intervyular, so'rovnomalar va boshqalar bilan belgilanadigan turli xil hujjatli tasdiqlardan foydalanish;
- insonning ijodiy imkoniyatlarini bashorat qilish maqsadida biografik tahlil usullaridan foydalanish. Kelajakni oldindan taxmin qilish uchun biografik so'rovnomadan foydalanish ushbu qoidaga misol bo'la oladi [8].

Yuqorida bayon etilganlarni biografik metodning mazmunini tushunishga nisbatan umumlashtirib, shunday xulosa qilish mumkinki, bu metod individ rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini izlash jarayonlarida, inson hamjamiyati rivojlanishining asosiy voqealarini ajratib ko'rsatish, hayot yo'llari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aniqlash jarayonlarida bemalol qo'llanilishi mumkin. Ushbu usulning alohida ahamiyatli jihati hayot yo'lini nafaqat tarixiy nuqtayi nazardan, balki shaxsning rivojlanish istiqbollari nuqtayi nazaridan ham o'rganish imkoniyatini yaratishi bilan namoyon bo'ladi.

Shaxsning hayotiy istiqboli tushunchasi ilmiy nashrlarda insonning jamiyatga moslashuvi, kasbiy yoki shaxsiy o'zini o'zi aniqlashtirish kontekstida ko'rib chiqilgan. Bu tushuncha Ye. I. Golovaxa tomonidan shakllantirilgan bo'lib, u ushbu tushunchani inson hayot yo'li istiqbollarining umumlashtirilgan tavsifi sifatida taqdim etadi.

Hayot istiqbolini tushunish ushbu tadqiqotchi tomonidan "kelajakning yaxlit manzarasi, murakkab va ziddiyatli, dasturlashtirilgan va kutilgan voqealar bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ular asosida ijtimoiy qadriyat va hayotning individual mazmuni o'rtasidagi bog'liqlik yuzaga keladi" deb ta'riflanadi. Kasbiy identiklik bilan bog'liq muammolar shaxsning doimiy rivojlanayotgan, takomillashib borayotgan va qobiliyatli mutaxassis sifatida shakllanishida uning yuqori amaliy ahamiyati bilan belgilanadi.

Talabani yosh senzi insonning o'z identifikatsiyasiga, o'z "Men" obraziga erishishining vaqt o'lchovi bilan mos keladi. Talabani kasbiy o'zini o'zi anglashining asosiy komponentlari "Men-konsepsiya" va "Men-obraz" hisoblanadi. Talabani "Men-obraz"i uch bosqichda ifodalaniadi:

- "Men-ideal", ya'ni o'zi haqidagi tasavvurlarni o'z ichiga oladi;
- "Men-me'yoriy" qo'yiladigan talablar bilan bog'liq tasavvurni belgilaydi;

- “Men-real”, mavjud qobiliyatlar, xususiyatlar va sifatlar haqidagi tasavvur bilan ifodalanadi.

“Men-obraz” asosida talabada o'zi va o'z imkoniyatlari haqidagi tasavvurlar tizimi sifatida belgilanadigan “Men-konsepsiya” tarkib topadi. “Men-konsepsiya” asosida atrofdagi insonlar bilan o'zaro munosabatlar amalga oshiriladi. Natijada, kelajak va rivojlanish istiqbollarining shaxsiy kasbiy strategiyasi quriladi.

Shundan so'ng, qo'yiladigan talablar, shartlar va istiqbollar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi bilan belgilanadigan kasbning ijobiy qiyofasini shakllantirish zarurati paydo bo'ladi. Kasbiy faoliyatda taqlid obrazini yaratish, unga tenglashish kerak bo'lgan mo'ljal sifatida zarur bo'ladi. Hayot istiqboli turgan hayot yo'li integrativ konsepsiya bo'lib, u insonning kasbiy rivojlanish muvaffaqiyatini belgilaydi.

Joriy va kelajakdagi o'zgarishlar bilan bog'liq rejalarni ma'lum bir manzarani hosil qiladi. Bu esa umuman shaxs yutuqlarini tavsiflovchi natija sifatida amal qiladi. Shuningdek, kasbiy identiklik va begonalashuv bipolyar tushunchalar bo'lib, ular shaxsning o'zini o'zi aniqlashining murakkabligini aks ettiradi. Ayniqsa, kasbiy rolini o'z zimmasiga oladi.

Shunday qilib, shunday xulosaga kelish mumkinki, kasbiy rivojlanish jarayonlari, xususan, aynanlik yoki begonalashuv kontekstida ko'rib chiqiladigan hayot yo'li ancha ziddiyatli ko'rinadi, chunki u ikki tomonlama namoyon bo'ladi. Birinchidan, hayot yo'li tashqi maqsad, faollikka turtki sifatida amal qiladi. Ikkinchidan, hayot yo'lining asosiy asosi dasturlashtirilgan maqsadning ichki, shaxsan ahamiyatli obrazi bo'lib, u faoliyat yoki kasbiy rivojlanishning haqiqiy motivini keltirib chiqaradi. Hayot yo'li talabalarning kasbiy identikligi va kasbiy begonalashuvini ta'minlovchi fundamental omil hisoblanadi. Hayot yo'li — bu insonning o'ziga xos portreti, uning dunyoqarashi va hayotiy yo'nalishi, intilishlari va yutuqlari, hayotiy qiyinchiliklarga munosabati va ularni yengish usullaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ананьев Б. Г. *Человек как предмет познания*. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 288 с.
2. Головин С. Ю. *Словарь практического психолога*. – Москва: Харвест, 1998. – 800 с.
3. Канавина С. С. Исследование временной перспективы современной молодежи // *Психология в экономике и управлении*. – 2017. – № 2. – С. 74–81.
4. Карпинский К. В. *Психология жизненного пути личности: учебное пособие*. – Гродно: ГрГУ, 2002. – 167 с.
5. Кон И. С. *Социологическая психология*. – Воронеж: МОДЭК, 1999. – 560 с.
6. Коржова Е. Ю. Психология жизненного пути: проблемы и перспективы // *Интегративный подход к психологии человека и социальному взаимодействию людей: векторы развития современной психологической науки*. – 2017. – № 3. – С. 164–169.
7. Кравченко Л. В. К вопросу об изучении понятия «жизненное событие» в психологии // *European Social Science Journal*. – 2017. – № 7. – С. 404–409.
8. Оксфордский толковый словарь общей медицины // *Национальная психологическая энциклопедия*. – Электронный ресурс. – [Источник](#).
9. Павленко В. И. Представление о соотношении социальной и личностной идентичности в современной западной психологии // *Вопросы психологии*. – 2000. – № 1. – С. 249–252.
10. Поваренков Ю. П. Психологическое содержание профессиональной идентичности // *Сибирский психологический журнал*. – 2006. – № 24. – С. 53–58.
11. Рыбникова Н. А. Феномены «само» и их воплощение в жизненном пути человека как актуальные проблемы современной психологии // *Актуальные проблемы психологии и конфликтологии*. – 2016. – № 1. – С. 54–57.
12. Сыманюк Э. Э. *Психологические основания профессиональных деструкций педагога: дис. ... д-ра психол. наук: 19.00.07*. – Екатеринбург: Книга, 2005. – 384 с.
13. Татарко С. А. Измерение идентичности в рамках статусной модели Дж. Марсиа // *Психологическая диагностика*. – 2009. – № 1. – С. 160–163.